

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XOLIQOV UTKIR UKTAMOVICH

**HOKIMIYAT VAKILIGA QARSHILIK KO'RSATGANLIK UCHUN
JAVOGBARLIKNING JINOYAT-HUQUQIY MASALALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Xoliqov Utkir Uktamovich

Hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy masalalari5

Холиков Уткир Уктамович

Уголовно-правовые вопросы ответственности за сопротивление представителю власти20

Kholikov Utkir Uktamovich

Criminal Law Issues of Liability for Resisting a Public Official38

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XOLIQOV UTKIR UKTAMOVICH

**HOKIMIYAT VAKILIGA QARSHILIK KO'RSATGANLIK UCHUN
JAVOBGARLIKNING JINOYAT-HUQUQIY MASALALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.1.PhD/Yu360 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Abduqodirov Sherzod Yoqubjonovich yuridik fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Kabulov Rustam yuridik fanlar doktori, professor Sunnatov Vohid Toshmurodovich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 8- yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871233-66-36; faks: +998971 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1475 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 24-dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 24-dekabrda 69-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

I.B. Djuraev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

D.B.Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda hokimiyat vakillariga nisbatan kuch ishlatish va qarshilik ko'rsatish holatlari soni yildan-yilga ortib borayotganligi kuzatilmoqda, xususan, Interpol ma'lumotlariga ko'ra, xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat yoki kuch ishlatar tuzilmalar vakillariga jismoniy qarshiliklar soni 2024-yilda 2020-yilga qaraganda 16,4 foizga oshgan bo'lib¹, bu salbiy tendensiya turli mamlakatlardagi siyosiy inqirozlar, migratsiya jarayonlari, mavjud turmush qoidalariga ochiqdan-ochiq va o'ta tajovuzkor norozilik bildirishlar oqibatida yuzaga kelayotgan ommaviy jamoat tartibining buzilishlari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur vaziyat boshqaruv tizimini izdan chiqarish va tartibsizliklarning oldini olish bo'yicha mavjud xalqaro hamda davlat tuzilmalarining faoliyati bugungi zamon talablariga to'liq javob bermayotganligidan dalolat beradi, bu esa hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish holatlarining oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va amaliyotni takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Jahonda hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish, boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxslarni jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash hamda jamoat tartibini saqlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan bo'lsada, bugungi globallashuv va zamonaviy tahdidlar sharoitida ro'y berayotgan keskin ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklar fonida boshqaruv funksiyalarini bajarayotgan hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish jinoyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning latentsiya darajasi va kvalifikatsiya qilishdagi murakkabliklar yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda o'rganish, mavjud bo'shliqlarni aniqlash hamda qonunni qo'llash amaliyotini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatishga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yaratish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Jumladan, xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko'rsatish yoxud ularni qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilganlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida "Jinoyat kodeksidagi jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'squinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar bartaraf etish hamda unda qo'llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta'rif berish va yagona shaklda qo'llash"²

¹ Interpol tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar. – URL: <https://www.interpol.int/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son.

jinoyat qonunini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga shaxslarning qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki ularga faol qarshilik ko‘rsatish jinoyatlarining jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish, jazoning muqararligini ta‘minlash va ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O‘RQ-703-son “Sudlar to‘g‘risida”gi, Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 20-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-iyil 16-yanvardagi PF-11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta‘minlashga ushbu tadqiqot ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish jinoyati uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy masalalari doimo mutaxassis va olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Milliy miqyosda mazkur qilmishga tegishli bo‘lgan ayrim masalalar M.X. Rustambaev, R. Kabulov, R.A. Zufarov, N.S. Salaev, A.A. Otajonov, K.B. Hakimov, B.J. Axrarov, X.M. Abzalova, I.T. Achilov, F.Z. Djalilov, M.M. Kalandarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida umumiy o‘rganilgan.

MDHga a‘zo davlatlar olimlari mazkur masalaning ayrim jihatlarini I.E. Suleymanova, Ye.V. Smolyakov, K.V. Tretyakov, N.I. Korjanskiy, M.I. Fedorov, F.X. Madlaeva, O.P. Gribunov, A.V. Shramchenko, S.A. Yakovlev, A.G. Bragina, E.A. Frolov, N. Kudryavsev, N.V. Ivansova, V.V. Kalugin, A.S. Denisova, V.A. Zobov, V.V. Kurseevlarning¹ ilmiy ishlarida qisman o‘rganilgan.

Xorijiy olimlar M. Ansell, M. Gellffer, C.C. Rachlin, Felix Ritchie, Aesha Amjad kabi xorijiy olimlar hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish jinoyatiga qarshi kurashishning huquqiy choralari u yoki bu darajada ilmiy jihatdan o‘rganishgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish jinoyatining ayrim masalalari tahlil qilinib o‘tilgan bo‘lsada, biroq tom ma‘noda ushbu jinoyat ilmiy jihatdan kompleks tadqiq qilinmagan.

¹ Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlar rejasidagi jinoyat qonunchiligi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat huquqida hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatlarining tarkibini kompleks tahlil qilishdan, mazkur jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilari mazmun va mohiyatini tushunishga nisbatan to'g'ri ilmiy yondashuvni ishlab chiqishdan, hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish bo'yicha muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatishning ijtimoiy xavfliligini tahlil qilish;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligining retrospektiv tahlilini o'rganish;

ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligiga ko'ra hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajargan shaxsga qarshilik ko'rsatganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalarini tahlil qilish;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatganlik jinoyati tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilish;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsni o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga majbur qilish holatlarini tadqiq qilish;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatini kvalifikatsiya qilish va o'xshash jinoyatlardan farqlash masalalarini tadqiq qilish;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligini normalarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish uchun jinoiy javobgarlik belgilash va ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish uchun javobgarlik belgilangan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar hamda o'xshash jinoyatlarni bir-biridan farqlash masalalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonuni normalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishining uslubiy asosini jinoyat huquqining asosiy tamoyillari tizimini tashkil etgan ilmiy tamoyillar hamda qiyosiy-huquqiy, tarixiy-sotsiologik, tizimli tahlil, kuzatuv, umumlashtirish, tasniflash, dialektik,

mantiqiy, formal-huquqiy, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqarolar tomonidan hokimiyat vakillarining xizmat kiyimini qonunga xilof ravishda kiyib olib, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishini oldini olish zarurati mavjud ekanligi sababli hokimiyat vakili bo'lmagan shaxs tomonidan hokimiyat vakilining xizmat kiyimi yoki hujjatidan foydalangan holda jinoyat sodir etilishini Jinoyat kodeksining 56-moddasiga asosan jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida kiritish zarurligi asoslangan;

hokimiyat vakillarining qonuniy faoliyatiga qarshilik ko'rsatishlar soni yildan-yilga oshib borayotganligi hamda hokimiyat vakillari va fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxslarning hayoti va sog'lig'iga nisbatan tajovuzlarning oldini olish choralari kuchaytirish zarurati yuzaga kelganligi sababli JK 219-moddasi 1-qismi hamda 2-qismining sanksiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslangan;

hokimiyat organlari xodimlari tomonidan fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda o'z huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi lozimligi haqidagi qoidani qonunchilikda belgilash lozimligi asoslangan;

davlat organlari va tashkilotlari obyektlarini qo'riqlash jarayonlariga xususiy sektorni jalb etish va bu bilan qo'roqlov ostiga olinadigan obyektlar sonini oshirishga muayyan ehtiyojlar paydo bo'lganligi sababali davlat organlari va tashkilotlari o'z obyektlarini qo'riqlash uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tarkibiy bo'linma yoki alohida xodim – idoraviy qorovullik bo'linmalari tashkil etishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

faol qarshilik, hokimiyat vakili, fuqarolik burchini bajarish tushunchalarini huquqiy ta'rif ishlab chiqish zarurati asoslantirilgan;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatining obyektiv, jinoyat uchun og'irlashtiruvchi holatlar, subyektiv va jinoyat tarkibini chegaralash belgilari asoslantirilgan;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish uchun javobgarlik yoshini 14 yosh qilib belgilash lozimligi asoslantirilgan;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatining jabrlanuvchilari qatoriga xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakili, idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlari, fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxs hamda ularning yaqin qarindoshlari ham kiritish zarurati asoslantirilgan;

hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyatining alohida og'irlashtiruvchi tarkiblariga a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan; b) takroran yoki xavfli residivist tomonidan; v) bir guruh shaxslar tomonidan; g) qurol yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan

ashyolarni ishlatib yoxud ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda sodir etilgan bo'lsa kabi holatlarni kiritish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 250 ta sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 150 ta surishtiruvchi, tergovchi va sud xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda jinoyat huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi va tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi fanini o'qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 15-maydagi "Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi" asosida ishlab chiqilayotgan Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasi 56-moddasi (Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 28-martdagi 27/2-52-22-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi sud tomonidan jazo tayinlashda qilmishning ijtimoiy xavfliligini inobatga olgan holda jazo tayinlash hamda ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi O'RQ-719-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 219-moddasi 1-qismi sanksiyasini yangi tahrirda bayon qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 26-aprildagi 29-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyati uchun jazoning mutanosibligi ta'minlagan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-iyuldagi 399-sonli qarori bilan tasdig'langan "Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo'linmalari xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarni elektron identifikatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi nizomning 9-bandi oltinchi xatboshini

“shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda o‘z huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi lozimligi” tahririda bayon qilinishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 12-15-44-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki boshqacha tarzda ushlab turilgan shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 598-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo‘linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarini xabardor qilish hamda o‘zaro hamkorlik qilish tartibi haqida”gi nizomning 3-bandi ikkinchi xatboshisin “Davlat organlari va tashkilotlari o‘z obyektlarini qo‘riqlash uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tarkibiy bo‘linma yoki alohida xodim – idoraviy qorovullik bo‘linmalari tashkil etish lozim” degan tahrirda shakllantirishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 12-15-44-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi qo‘riqlanayotgan obyektning hamda uni qo‘riqlashni amalga oshiruvchi xizmatchining xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 8 ta ilmiy maqola (ulardan 2 tasi xorijiy nashrlarda) hamda 5 ta tezis (ulardan 2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilashning ijtimoiy zarurati*” nomli birinchi bobida mazkur qilmishning ijtimoiy xavfliligi tahlil qilinib, buning uchun jinoiy javobgarlikni belgilash zarurati yoritilgan. Shuningdek, hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi milliy jinoyat

qonunchiligining retrospektiv tahlili amalga oshirilgan hamda ba'zi xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi qiyosiy o'rganilgan.

Tadqiqotchi tomonidan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida, xususan, aholining ijtimoiy turmush tarzi, huquqiy madaniyati va ongini yanada yuksaltirishga qaratilgan o'zgarishlar davrida hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatganlik uchun javobgarlikning jinoyat qonunchiligida belgilanganligi ahamiyati tahlil qilingan.

Dissertant hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi hamda bunday qilmish uchun jinoiy javobgarlikni belgilash zaruratini jinoyatning qasddan sodir etilishi, uning motivi va maqsadi, tarqaluvchanlik xususiyati hamda ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarning shaxsiyati bilan bog'lab tadqiq etgan.

Muallif ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligini quyidagi mezonlar bilan asoslagan: – qarshilik ko'rsatish nafaqat jabrlanuvchining faoliyatiga, balki jamiyatning boshqa a'zolariga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatdagi mavjud qoidalarga nisbatan hurmatsizlik ruhini shakllantirishga olib kelishi; – qarshilik ko'rsatish holatida shaxs o'z harakatlarining xavflilik xususiyatini anglagan holda, ularni istab sodir etishi; – qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq jinoiy harakatlar o'zida nafaqat qasd, balki ba'zi holatlarda muayyan motiv va maqsadni ham ifodalashi.

Muallif tomonidan hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatganlik uchun javobgarlikning retrospektiv tahlili jarayonida Amir Temur davlatchiligi, xonliklar va amirliklar qonunchiligi tarixi, XX asrning 20-30 yillari hamda 1994-yildan bugungi kunga qadar bo'lgan qonunchilik o'rganilgan. Tadqiqotchi Sobiq Ittifoq davrida ushbu turdagi jinoiy qilmishlar uchun jazoning nisbatan og'ir bo'lganligini, xususan, o'tgan asrning 60-yillaridagi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida qarshilik ko'rsatish natijasida hokimiyat vakili vafot etsa yoki uning hayotiga suiqasd uyushtirilsa, o'lim jazosi belgilanganligini qayd etgan.

Dissertant tomonidan Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston va boshqa xorijiy davlatlarda hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatganlik uchun javobgarlik masalalari tahlil qilinib, ushbu davlatlarda "hokimiyat vakili" tushunchasining ta'rifi, qilmishning xususiyatlari va jazo turlari yoritilgan. Xususan, Italiya jinoyat qonunchiligiga ko'ra, mansab yoki xizmat vazifasini bajarayotgan shaxsga, shuningdek, ularning talabiga ko'ra yordam berayotgan har qanday shaxsga zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilib qarshilik ko'rsatganlik uchun olti oydan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkinligi bayon qilingan. Shuningdek, Norvegiya va Daniya davlatlari jinoyat qonunchiligining o'ziga xosligi sifatida, garchi shaxs hokimiyat vakili hisoblanmasa-da, unga ma'muriy yoki xususiy obyektlarni qo'riqlash vazifasi yuklatilgan bo'lsa (qorovullik funksiyasi), unga nisbatan ko'rsatilgan qarshilik ham jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi e'tirof etilgan.

Dissertant hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatishning ijtimoiy xavfliligi tahlilidan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surgan:

Birinchiidan, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish dolzarb bo'lgan davrda mazkur qilmish uchun javobgarlikning JK Maxsus qismida alohida norma sifatida belgilanishi ijtimoiy zarurat hisoblanadi.

Ikkinchiidan, jinoyatning ijtimoiy xavflilik tavsifi va xorijiy tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Uchinchiidan, Jinoyat kodeksining 56-moddasidagi jazoni og'irlashtiruvchi holatlar qatoriga "hokimiyat vakili bo'lmagan shaxs tomonidan hokimiyat vakilining xizmat kiyimi, hujjati yoki maxsus vositasidan foydalangan holda jinoyat sodir etish" bandini kiritish taklif etiladi.

To'rtinchiidan, jinoiy javobgarlik asoslaridan biri bo'lgan "faol qarshilik" tushunchasining aniq mazmunini qonunchilikda belgilash lozim.

Dissertatsiyaning "*Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatganlik jinoyati tarkibining jinoyat-huquqiy tavsifi*" deb nomlangan ikkinchi bobida jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari, shuningdek, jabrlanuvchini o'z xizmat vazifasi yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga majbur qilish masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi xorijiy olim M.Fedorovning "jinoyatlarda umumiy obyekt mavjud emas, jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui real holat emas, balki tushunchadir" degan qarashiga nisbatan ilmiy munozaraga kirishgan. Muallif A.Otajonov, M.Usmonaliyev, R.Kabulov, M.Rustambayev, I.Achilov, F.Xudoykulov, F.Jalilov hamda xorijiy olimlardan N.Korjanskiy, L.Inogamova-Xegay, E.Kouk, A.Kulichkovlarning fikrlarini tahlil qilib, umumiy obyekt – jinoyat qonunchiligi muhofazasi ostidagi barcha ijtimoiy munosabatlar ekanligini ta'kidlagan.

Dissertant doktrinal qarashlar va xalqaro tajribaga asosan, mazkur jinoyatning maxsus obyekt – hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining qonuniy va legitim faoliyat yuritishini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar; turdosh obyekt – boshqaruv tartibidagi ijtimoiy munosabatlar; bevosita obyekt esa hokimiyat vakillarining me'yorda faoliyat yuritishi hamda ularning shaxsiy daxlsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar, degan xulosaga kelgan.

Muallif tadqiqotchi Y.Smolnyakovning jinoyat predmeti borasidagi fikriga e'tiroz bildirib, hokimiyat vakiliga nisbatan ishlatilgan zo'rlik avvalambor ijtimoiy munosabatlarga qaratilganligini, jinoyat predmeti esa har doim ham jinoyat tarkibining ajralmas qismi bo'lishi shart emasligini asoslagan.

Jinoyatning subyektiv tomonini tahlil qilishda M.Rustambayev, M.Usmonaliyev, D.Kushbakov, K.Tretyakov, V.Lebedeva, P.Dagel, V.Kudryavsevlarning qarashlari o'rganilib, qarshilik ko'rsatish – ongli, o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglagan va oqibatini ko'zlagan holda sodir etiladigan harakat ekanligi qayd etilgan. Jabrlanuvchini o'z vazifasidan voz kechishga majburlash masalasida esa tadqiqotchi bir qator olimlar (M.Rustambayev, Q.Rozimova va boshqalar) bilan ilmiy munozaraga kirishib, o'z qarashlarini shakllantirgan.

Muallif shaxsni Jinoyat kodeksining 219-moddasi bilan javobgarlikka tortishning muhim shartlarini ilmiy asoslagan. Xususan, qarshilik ko'rsatish harakati bevosita jabrlanuvchining xizmat faoliyati yoki fuqarolik burchi bilan bog'liq bo'lishi shart. Shaxsiy adovat, kelishmovchilik yoki maishiy nizo negizida kelib chiqqan qarshilik holatlari ushbu modda bilan malakalanmasligi lozimligi ta'kidlangan. Agar qarshilik ko'rsatish xizmat vazifasi bilan bog'liq bo'lmasa, taraflarning oldindan tanish bo'lishi yoki bo'lmasligi ahamiyat kasb etmaydi.

Shuningdek, hokimiyat vakili talabining qonuniyligi masalasi tahlil qilingan. Hokimiyat vakilining noaniq, tushunarsiz yoki oshkora g'ayriqonuniy talablari natijasida yuzaga kelgan qarshilik holatlari sud va tergov organlari tomonidan atroflicha o'rganilishi lozimligi qayd etilgan. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, xodim fuqaroga murojaat qilishda, ayniqsa ushlab chog'ida, buning sabablari va huquqiy asoslarini tushunarli tilda bayon etishi kerakligi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi JK 219-moddasida nazarda tutilgan jinoyat vaqt va makon bilan cheklanmasligini, ya'ni u kunning istalgan vaqtida va joyida sodir etilishi mumkinligini sud amaliyoti misollarida asoslagan. Jinoyat faqat qasddan sodir etiladi; shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar (tazyiq, ruhiy bosim yoki anglashilmovchilik) oqibatidagi harakatlari qarshilik ko'rsatish sifatida baholanmasligi kerak.

Muallif JK 219-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari tahlili asosida quyidagi xulosalarni bergan:

xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilish deganda ushbu shaxslarga jismoniy va ruhiy zo'rlik qilish orqali ta'sir qilish mumkin bo'lgan harakatlarni tushunish kerak;

xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kechish deganda jabrlanuvchi o'z vazifasini ohirigacha yetkazganlik holati ham ayblanuvchining harakatlari JK 219-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'lishi mumkin;

tergov va sud organlari shaxs tomonidan shaxs hokimiyat vakili yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatganlik uchun qilmishni malakalashda faol qarshilik va o'z xizmat vazifasidan yoki fuqaroviy burchidan voz kechishga majbur qilish o'rtasidagi farqni aniq belgilashi lozim. Majburlash ijtimoiy havfli qilmish hisoblanib, unda shaxs jismoniy zo'rlik yoki ruhiy zo'rlikni amalga oshirishi mumkin. Bunda harakatlar jiddiyligi, xavfliligi va maqsadga qaratilganligi bilan faol qarshilikdan ajralib turadi.

Majburlash o'zining jiddiyligi va maqsadga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Dissertant sud amaliyotida ushbu masalada yagona yondashuv mavjud emasligini, ba'zan majburlov harakatlari amalga oshirilganiga qaramay, vazifa yakuniga yetkazilganligi sababli qilmish noto'g'ri malakalanayotganini tanqidiy tahlil qilgan.

Dissertatsiyaning *“Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish jinoyatini kvalifikatsiya qilish va takomillashtirish istiqbollari”* deb nomlangan uchinchi bobida mazkur jinoyatni o‘xshash tarkiblardan farqlash va qonunchilikni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Muallif M.Rustambayev, A.Otajonov, X.Abzalova, F.Jalilov kabi olimlarning fikrlarini tahlil qilib, jinoyat jabrlanuvchining aynan o‘z xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajarish sababli sodir etilishi kerakligini ta’kidlagan. Shu nuqtai nazardan, JKning 97, 104, 105, 112, 140-moddalaridagi “o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlari”ga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilinib, qasd olish, to‘sqinlik qilish yoki qo‘rqitish maqsadlari mavjud bo‘lishi shartligi ko‘rsatilgan.

Xususan, tadqiqotchi tomonidan ushbu ijtimoiy xavfli qilmishni quyidagi jinoyat-huquqiy masalalariga e’tibor qaratishni lozim topgan:

1) hokimiyat vakili yoki fuqaroiy burchini bajarish shaxsning o‘z xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jabrlanuvchining xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarish sababli jinoyat sodir etilgan bo‘lishi shartligi;

2) shaxs tomonidan jabrlanuvchi o‘z xizmat vazifasi yoki fuqaroviy burchini bajarish munosabati bilan qasd olish maqsadida unga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etgan jinoyatlar og‘irlashtiruvchi holat deya malakalanishi lozimligini;

3) hokimiyat vakili yoki fuqaroiy burchini bajarish shaxsning o‘z xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning maqsad va motivi qasd olish bilan bir qatorda, shaxsga o‘z xizmat vazifasini yoki fuqaroviy burchini bajarishiga tusqinlik qilish, qo‘rqitish, ta’sir o‘tkazish kabilarda namoyon bo‘lishligini qayd etgan.

Dissertant “yaqin qarindoshlar” tushunchasiga qarindosh yoki quda tomonidan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillarni kiritishni nazarda tutgan. Shuningdek, jabrlanuvchining yaqin qarindoshi bo‘lmagan shaxsga nisbatan, lekin hokimiyat vakiliga ta’sir o‘tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlar ham og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanishi taklif etilgan. Obyektda adashish (xato qilish) holatlarida ham aybdorning maqsadi va motivi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi sud amaliyoti misollarida yoritilgan.

Tadqiqotchi jabrlanuvchi tomonidan xizmat vazifasi suiiste’mol qilinganda yoki vakolat doirasidan chetga chiqilganda sodir etilgan qarshilik harakatlari ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilinmasligini, bunda noqonuniy harakatlar yaqqol namoyon bo‘lishi kerakligini bayon qilgan.

Qonunchilikni takomillashtirish maqsadida JK 97-moddasi 2-qismi “g” bandi va boshqa tegishli moddalarni “o‘z xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini” degan tahrirda bayon etish taklif qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan amaldagi Jinoyat kodeksining 219-moddasi birinchi qismiga mazkur jinoyatning jabrlanuvchisi qatoriga idoraviy qorovullik bo‘linmalari ham kiritilishi lozimligini ilmiy asoslab bergan. Xususan, muallif O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni¹ga ko‘ra tartibga solingan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, tadbirkorlik subyektlarining o‘z obyektlarini qo‘riqlash uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan alohida xodimga o‘z vazifasini bajarishi davomida o‘zga shaxslar tomonidan ushbu vazifalarni bajarishiga qarshilik ko‘rsatishi holatlarini nazariy va amaliy jihatdan yoritgan hamda sud amaliyoti hujjatlarin tahlil qilish orqali tadqiqotchi ushbu turdagi idoraviy qorovullik bo‘linmalari vakilarining qarshilik ko‘rsatish ko‘rinishidagi ijtimoiy xavfli qilmishga duch kelayotganini misollar bilan keltirilgan.

Dissertant JK 219-moddasining birinchi qismiga “idoraviy qorovullik bo‘linmalari”ni ham kiritishni taklif etib, “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun va xorijiy tajribaga tayangan holda moddani quyidagi yangi tahrirda bayon qilishni tavsiya etgan:

“219-modda. Hokimiyat vakiliga, idoraviy qorovullik bo‘linmalari yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish

Qarshilik ko‘rsatish, ya‘ni xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakili yoki idoraviy qorovullik bo‘linmalari xodimining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko‘rsatish yoxud tahdid qilish maqsadida ushbu shaxslar yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan jismoniy zo‘rluk ishlatish, shuningdek ularni o‘ldirish, zo‘rluk ishlatish yoki mol-mulkini yo‘q qilish bilan qo‘rqitish, –

